



BAHOR QAYTMAYDI HAQIDA UMUMIY MULOHAZALAR

*Andijon davlat chet tillari institute Roman-german va slavyan tillari fakulteti rus
tili nazariyasi va amaliyoti 101-guruh talabasi*

Hoshimova Gulhayo Zohidjon qizi

Annotatsiya: O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asari — o'zbek adabiyotining eng ta'sirli nasriy asarlaridan biri bo'lib, insoniylik, hayotiy qadriyatlar, ota-ona mehrini ulug'lash, yoshlik va hayot yo'lidagi tanlovlar haqida hikoya qiladi. Ushbu maqolada qissa haqidagi fikrlarim keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: Alimardon, Anvar, Muqaddam, xiyonat, hayot.

Аннотация: «Весна не возвращается» Откира Хошимова — одно из самых влиятельных прозаических произведений узбекской литературы, повествующее о человечности, жизненных ценностях, прославлении родительской любви, молодости и выборе на жизненном пути. В этой статье представлены мои мысли по поводу этой истории.

Ключевые слова: Алимардон, Анвар, Мукаддам, предательство, жизнь.

Annotation: O'tkir Hoshimov's "Spring Will Not Return" is one of the most impactful prose works in Uzbek literature. It tells a story about humanity, life values, glorifying parental love, youth, and the choices made along the path of life. This article presents my thoughts and reflections on the story.

Keywords: Alimardon, Anvar, Muqaddam, betrayal, life.

O'tkir Hoshimov Toshkentda tug'ilgan va shu yerda o'qib-o'sgan. U jurnalistika sohasida faoliyat yuritgan, keyinchalik taniqli yozuvchi va siyosiy arbob sifatida ham tanilgan. O'tkir Hoshimovning asarlari o'zbek xalqining ruhiyatini, qadriyatlarini, oilaviy muhitni, insoniy munosabatlar, vijdon, sadoqat,



muhabbat, kechirim va hayotiy tanlovlarni chuqur falsafiy tarzda aks ettiradi. Uning shoh asarlaridan biri- "Bahor qaytmaydi"

"Bahor qaytmaydi"-psixologik, urushdan keyingi avlod hayoti va insoniylik haqidagi qissa. Ushbu asar 1969-yilda yaratilgan. "Bahor qaytmaydi" qissasida yozuvchi iste'dodli, biroq uning qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan maxrum xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-ma'naviy inqirozini san'atkorona tahlil etib berdi. 1969-yilda yozilgan ushbu qissada iste'dodli bir yigitning shuhrat ilinjida xazon bo'lgan umri, ma'naviy-ruhiy inqirozi san'atkorona ifodalangan. Ushbu asar sahnalashtirilganiga qaramay o'quvchilar tomonidan adibning eng ko'p o'qiladigan kitoblardan biri hisoblanadi. Asarda ikki do'stning boshidan kechirgan kechmishlari yoritib beriladi. Alimardon, Anvar, Muqaddam ismli qahramonlarning fe'l-atvori, dunyoqarashi, tanlagan yo'li kitobxonni chuqur mushohada va xulosalar qilishga chorlaydi.

"Bahor qaytmaydi" qissasi inson umrining va shuhratining boqiy emasligi haqida. Asarda yozuvchi iste'dod ega, biroq uning qadriga yetmagan, ulug' maqsadlardan mahrum, xudbin yigitning tanazzul tarixini, ruhiy-ma'naviy inqirozini ijodkorona yoritib beradi. Ana shu ijodkorona tahlil tasvirning tuyg'ularga boyligi va samimiyligi bilan o'quvchilarning qalbiga yo'l topdi, ko'plarni hayajonga soldi. Qissa matnida boshdan-oyoq muallifning o'ta nozik va nafis kuzatishlari, qalbi tebranishlari, rang-barang kechinmalari, zavq-shavqi, armon-o'kinchlari, xilma-xil tuyg'ulari aks etgan.

Aslini olganda, qissadagi har bir voqea Bo'ston qishlog'ida bo'lib o'tgan. Asar bosh qahramoni-Alimardon. U bronxit kasalligiga chalingan edi. O'qishni tamomlashidan bir hafta oldin onasini yo'qotgan edi. Alimardonni onasidan keyin faqatgina do'sti Anvar qo'llab turardi. U bemorlik paytida Anvar uni holidan xabar olgani keldi va uni o'zining yaxshi ko'rgan qizi Muqaddam uni davolashini aytdi. Shunday voqealar bilan asar davom etadi. Ushbu qissada har bir qahramon ulkan bir vazifani bajargan:



Alimardon-haqiqiy ismi Alimardon To'rayev.U tabiatan qandaydir faqatgina o'zini yaxshi ko'radigan va boshqalarga nisbatan qalbida qandaydir hasad tuyg'usi bor edi.U hatto konservatoriyaning muvaffaqiyatini yakunladi.Ammo qissa davomida Alimardon o'z do'stiga juda katta xiyonat qildi.U Anvarning sevgilisi Muqaddamga uylanib olgan.Yillar o'tib mashhur ashulachi bo'lib,mansabga ko'tarilgan paytda tamomila o'zgardi.Boshqa ayolllar bilan yurib xotiniga xiyonat qildi,ichkillikka berildi va umrining go'zal paytlarini xazonga almashdi.Hayotidagi xatoliklarini tushungan zamonoq hammasi uchun endi kech ekanini tushunib yetdi .

Anvar-bosh qahramonlardan biri hisoblanib,anchagina sodda ,ishonuvchan obraz.U do'stiga haddan ziyod ishongan.Alimardon va Muqaddam qilgan ishlarga hech qanday yomonlik qilmadi .Hatto asar so'nggida do'sti qilgan ishlarni unutib,Unga yordam bergan.

Muqaddam-asar avvalida Anvarning sevgilisi.Ammo Muqaddam sof tuyg'ularga nisbatan xiyonat qildi Kechirib bo'lmas ish qildi.Xatolari bois hayotda yomon kunlarni boshidan o'tkazdi.U hamshira bo'lib ishlar edi.Bo'ston qishlog'ida be'morlarni davolar edi.O'z otasidan qo'rqqar edi va qilib qo'ygan xatoyidan keyin ko'p narsadan cho'chib qolgandi.

Shuni ta'kidlash joizki,qissa davomida Anvar Muqaddamga bir hikoya aytib bergan.Bu hikoya bilan yozuvchi xuddiki Muqaddam va Anvar hayoti birga davom eta olmasligiga ishora sifatida ifodalamoqchi bo'ldi .

“Bahor qaytmaydi”qissasi davomida quyidagi hikmatli so'zlar ishtirok etgan:

1.Hamma yagona bir tashvish bilan, kuz tashvishi bilan turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo'ldi. Faqat bitta hovlida – qishloq chekkasida, shundoqqina anhor yoqasida joylashgan hovlida sukunat hukm surar, faqat bir kishi yolg'iz o'z tashvishi bilan band edi.



-O'tkir Hoshimov bu fikr bilan Alimardonning holatini tasvirlamoqchi bo'lgan.

2.Qiziq, bir xil odamlarning ishi o'z-o'zidan yurishib ketaveradi. Meniki-chi?

-Alimardonning hasad qilayotgan vaziyati uchun ishlatilgan.

3.Dunyo paydo bo'lganidan beri nima uchun odamlar boshi ustida xiyonat degan qop-qora sharpa kezib yuradi? Odamlar bunchalik qabihlikni qayoqdan o'rganisharkin?!

-Anvarning holatini ifoda etish uchun ishlatilgan.

4.Hayot shunaqa ekan. Goho kimningdir motami kimgadir bayram bo'larkan!

-Alimardonning yomon holati ,ya'ni xatolari natijasidagi umri tasvirlangan.

5.Qiziq, balog'atga yetgan qiz muhabbatni emas, muhabbatning o'zi uni izlab topadi, deganlari rost ekan.

6.Besh kunlik dunyoda xotinga xiyonat qilmagan erkak bormi?

Umuman olganda,"Bahor qaytmaydi"-eng zo'r asarlardan biri.

Xulosa qilib aytganda,O'tkir Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" asari inson hayoti, yoshlik, muhabbat va o'tkinchi davrlar haqida chuqur falsafiy mushohadalarni o'zida mujassam etgan. Asarda bosh qahramonning hayot yo'li, orzulari va haqiqat bilan to'qnashuvi orqali o'quvchi yashashning mazmuni, vaqtning qadriga yetish va hayotiy tanlovlar haqida o'ylashga undaladi. Asarda bahor — yoshlik timsoli sifatida tasvirlanadi, uning ortga qaytmasligi esa inson umrining o'tkinchiligini ifodalaydi. Bu asar har bir insonni o'z hayoti, qadrli damlari ustida mulohaza yuritishga undaydi.